

G'aybullayev A'zam Axadovich
Buxoro davlat pedagogika instituti
psixologiya kafedrası o'qituvchisi
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
azam.gaybullayev05@gmail.com

GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLAR ONGIDA OILAVIY QADRIYATLARNI SAQLASH MUAMMOLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv jarayonida yoshlar ongida oilaviy qadriyatlarni saqlash muammolari kompleks tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida global ommaviy madaniyat, raqamli texnologiyalar va madaniy transformatsiyalarning yoshlar ma'naviy dunyosi hamda qadriyat yo'nalishlariga ta'siri o'rganildi. Ilmiy izlanishda qiyosiy tahlil, psixodiagnostik metodlar, sotsiologik so'rovnoma va kontent tahlil uslublari qo'llanildi. Olingan natijalarga ko'ra, global ta'sirlar yoshlar ongida individualistik qarashlarni kuchaytirib, oilaviy hamjihatlik qadriyatlarini susaytirishi mumkinligi aniqlandi. Shu bilan birga, oila instituti, ta'lim muassasalari va mahalliy ijtimoiy institutlar yoshlarda milliy va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashda hal qiluvchi rol o'ynashi ta'kidlangan. Maqola xulosalari pedagogik va psixologik jihatdan amaliy tavsiyalar bilan boyitilgan bo'lib, ular globallashuv sharoitida yoshlar ma'naviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Globallashuv, yoshlar, oilaviy qadriyatlar, milliy an'analar, ijtimoiy-psixologik ta'sir, madaniy identifikatsiya, ma'naviy barqarorlik, oila instituti, ijtimoiy tarmoqlar, madaniy globalizm, tarbiya, ma'naviy immunitet, pedagogik ta'sir, sivilizatsiyalararo muloqot.

ПРОБЛЕМЫ СОХРАНЕНИЯ СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В СОЗНАНИИ МОЛОДЕЖИ В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация. В данной статье представлен всесторонний анализ проблем сохранения семейных ценностей в сознании молодежи в процессе глобализации. В исследовании изучалось влияние глобальной массовой культуры, цифровых технологий и культурных трансформаций на духовный мир и ценностные ориентации молодежи. В научном исследовании использовались сравнительный анализ, психодиагностические методы, социологические анкеты и методы контент-анализа. По полученным результатам установлено, что глобальное влияние может усиливать индивидуалистические взгляды в сознании молодежи и ослаблять ценности семейного единства. При этом подчеркивается, что институт семьи, образовательные учреждения и местные социальные институты играют решающую роль в укреплении национальных и семейных ценностей у молодежи. Выводы статьи дополнены педагогическими и психологическими практическими рекомендациями, направленными на укрепление духовного иммунитета молодежи в условиях глобализации.

Ключевые слова: Глобализация, молодежь, семейные ценности, национальные традиции, социально-психологическое воздействие, культурная идентификация, духовная устойчивость, институт семьи, социальные сети, культурный глобализм, воспитание, духовный иммунитет, педагогическое воздействие, диалог между цивилизациями.

PROBLEMS OF PRESERVING FAMILY VALUES IN THE CONSCIOUSNESS OF YOUTH IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the problems of preserving family values in the consciousness of young people in the process of globalization. The study studied the impact of global mass culture, digital technologies and cultural transformations on the

spiritual world and value orientations of young people. Comparative analysis, psychodiagnostic methods, sociological questionnaires and content analysis methods were used in the scientific research. According to the results obtained, it was found that global influences can strengthen individualistic views in the minds of young people and weaken the values of family unity. At the same time, it is emphasized that the institution of the family, educational institutions and local social institutions play a decisive role in strengthening national and family values in young people. The conclusions of the article are enriched with pedagogical and psychological practical recommendations, which are aimed at strengthening the spiritual immunity of young people in the conditions of globalization.

Keywords: *globalization, youth, family values, national traditions, socio-psychological impact, cultural identification, spiritual stability, family institution, social networks, cultural globalism, upbringing, spiritual immunity, pedagogical impact, dialogue between civilizations.*

Kirish. Globallashuv bugungi kunda butun jahon taraqqiyotining asosiy tendentsiyalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. U iqtisodiy integratsiya, axborot oqimlarining erkin aylanishi, madaniy muloqot va siyosiy hamkorlikni kuchaytirish bilan birga, milliy va shaxsiy qadriyatlarga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiya vositalari yoshlar ongiga tezkor va kuchli ta'sir etmoqda [1].

Shu bilan birga, globalizatsiyaning ijobiy jihatlari ham mavjud: yoshlar uchun ilm-fan, ta'lim va madaniy almashinuv imkoniyatlari kengaymoqda, dunyoqarashlari boyimoqda. Biroq uning salbiy jihatlari ham ko'zga tashlanadi – individualistik g'oyalar, iste'mol madaniyati, oilaviy munosabatlarda beqarorlik va milliy qadriyatlarga befarqlik holatlari ko'paymoqda [2].

Oila esa jamiyatning asosiy ijtimoiy birligi sifatida yosh avlod tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Oila orqali inson nafaqat moddiy, balki ma'naviy ehtiyojlarini ham qondirib boradi. Shu bois globallashuv jarayonida oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylash va yoshlar ongida uning ahamiyatini saqlab qolish strategik vazifaga aylanadi [3].

Psixologiya va pedagogika fanlari nuqtai nazaridan, yoshlarning ma'naviy dunyosi va xulq-atvori shakllanishida oilaning roli beqiyosdir. Ota-ona namunasi, an'ana va urf-odatlar, milliy meros va axloqiy qoidalar yoshlar tafakkurida mustahkam joy olgan taqdirda, ular turli tashqi ta'sirlarga chidamli bo'ladi. Ammo bu jarayonda ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va davlat siyosati ham muhim omil hisoblanadi [4].

Shunday qilib, globalizatsiya jarayonida yoshlar ongida oilaviy qadriyatlarni saqlash muammosi nafaqat milliy, balki jahon miqyosida dolzarb masala sifatida tadqiq etilishi zarur.

Globallashuv sharoitida yoshlar ongida oilaviy qadriyatlarni saqlash muammolarini tahlil qilish, ularning psixologik va pedagogik jihatlari o'rganish hamda samarali yechimlar taklif etish.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi globalizatsiya jarayonida yoshlar ongida oilaviy qadriyatlarni saqlash muammolarini har tomonlama tahlil qilishdan iborat. Jumladan:

- globallashuvning ijtimoiy, madaniy va psixologik ta'sirini yoshlar tafakkuri va hayotiy qarashlarida nechog'lik ta'sirini aniqlash;
- oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylashda ota-ona, ta'lim muassasalari va mahalliy ijtimoiy institutlarning rolini o'rganish;
- yoshlar ongida milliy an'ana va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashda psixologik-pedagogik ta'sir usullarini belgilash;
- yoshlarda individualizm va iste'mol madaniyatining kuchayishi natijasida vujudga kelayotgan ijtimoiy-psixologik muammolarni ochib berish;
- oilaviy qadriyatlarni saqlash va avloddan-avlodga yetkazishda samarali ijtimoiy hamda psixologik yechimlarni ishlab chiqish.

Shu orqali tadqiqot global va mahalliy madaniy jarayonlar ta'sirida yoshlar oilaviy qadriyatlarini asrab qolishga xizmat qiluvchi nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Tadqiqot jarayonida kompleks ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, mavzuga oid xorijiy va mahalliy adabiyotlar, maqolalar hamda xalqaro tashkilotlar (YuNESKO, YuNISEF va boshqalar)ning ma'lumotlari tahlil qilindi [2; 5]. Bu yoshlar va oilaviy qadriyatlarga doir nazariy asoslarni shakllantirish imkonini berdi.

Amaliy tadqiqotimiz jarayonida Buxoro davlat pedagogika institutining ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan 200 nafar talabalaridan yosh o'rtasida oilaviy qadriyatlarga munosabat, global axborot vositalari ta'siri va turmush tarzidagi o'zgarishlar yuzasidan sotsiologik so'rovnoma anonim anketa shaklida o'tkazildi. Shuningdek "Psixologiya" yo'nalishi talabalaridan shaxsning qadriyatlar yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlarga moyilligi va oilaviy qadriyatlarga sadoqatini o'lchash maqsadida qo'llanildi. Masalan, Rokichning "Qadriyat yo'nalishlari shkalasi" hamda Shvartsning "Qadriyatlar nazariyasi"dan foydalanildi [3; 4].

Olingan natijalar milliy an'analarga asoslangan oilaviy qadriyatlar bilan global ommaviy madaniyat ta'sirida shakllanayotgan yangi tendentsiyalar qiyoslanib, umumiy va farqli jihatlar aniqlandi. Bundan tashqari ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari va ijtimoiy medialarda yoshlarga oid oilaviy qadriyatlar mavzusidagi materiallar o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlar statistik va sifat jihatidan qayta ishlanib, umumiy xulosalar chiqarildi. Bu metodlar kompleks qo'llanilishi natijasida masalaning nazariy va amaliy qirralarini har tomonlama yoritish mumkin.

Tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlar yoshlar ongida oilaviy qadriyatlarning saqlanishi va global ta'sirlar natijasidagi o'zgarishlar haqida qator muhim xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Tadqiqotimiz davomida respondentlarni oilaviy qadriyatlarga nisbatan munosabatining shakllanish darajasi o'zimiz tomonimizdan ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik so'rovnoma orqali o'rgandik va ilmiy asosga ega bo'lgan empirik natijalarni qo'lga kiritdik.

Respondentlarning oilaviy qadriyatlarga nisbatan munosabatining shakllanish darajasi o'rganishda quydagicha empirik ko'rsatkichlar qayd qilindi.

Sotsiologik so'rovnomada ishtirok etgan 200 nafar respondentlarning natijalari quyidagicha foizlarda aks etdi:

- 52% yoshlar global ommaviy madaniyat, internet va ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida milliy va oilaviy qadriyatlardan ma'lum darajada uzoqlashayotganini bildirishdi. Ular o'zini erkinlik va individualistik g'oyalarga moyil sifatida namoyon qilishdi.
- 37% respondentlar oilaviy qadriyatlarni saqlashda asosiy omil sifatida ota-ona namunasi va kattalarning tarbiyaviy ta'sirini ko'rsatdi.
- 11% yoshlar esa oilaviy qadriyatlarga nisbatan neytral pozitsiyada ekanini, ular uchun shaxsiy manfaat va kasbiy rivojlanish birinchi darajali ekanini ta'kidlashdi.

Bu natijalar globalizatsiya jarayonida yoshlarda qadriyatlar yo'nalishida differentsiatsiya va ikkilamchi tendentsiyalar paydo bo'layotganini ko'rsatadi. Ya'ni bir tomonda an'anaviy qadriyatlarni saqlashga intilish bo'lsa, ikkinchi tomonda global individualizm va iste'mol madaniyati ta'siri kuchaymoqda.

3. Tadqiqotda milliy oilaviy qadriyatlar – hamjihatlik, kattalarga hurmat, ota-onaga sadoqat, bolaga g'amxo'rlik kabi xususiyatlar global tendentsiyalarda tobora kamayib borayotgani aniqlandi. Bu holat ayniqsa katta shaharlarda istiqomat qilayotgan yoshlarda ko'proq kuzatilmoqda. Qishloq joylardagi yoshlarda esa oilaviy qadriyatlarga sadoqat darajasi yuqoriroq saqlanib kelmoqda.

4. Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari tahlili shuni ko'rsatdiki, yoshlarda axborot iste'molining katta qismi global turmush tarzi va individualistik g'oyalarni targ'ib qiladigan materiallarga to'g'ri keladi. Milliy va oilaviy qadriyatlarni targ'ib etuvchi axborotlar esa nisbatan kamroq tarqalgan va ko'pincha rasmiy kanallar orqali taqdim etiladi.

Olingan natijalarni jahon olimlarining fikrlari bilan qiyoslash mumkin. Masalan, Inqlxart va Velzelning tadqiqotlariga ko'ra, modernizatsiya jarayonida shaxsiy erkinlik qadriyatlari kuchayib, an'anaviy qadriyatlar zaiflashishi tabiiy jarayondir [4]. Zigmunt Bauman esa global dunyoda "suyuq modern" sharoitida an'anaviy qadriyatlar barqarorligi zaiflashib, insonlar o'zini xavfsiz his qilish uchun yangi ma'naviy tayanch izlashini ta'kidlaydi [9].

Shu bilan birga, YuNESKOning 2018 yilgi hisobotida oila jamiyatda ma'naviy va madaniy uzviylikni ta'minlovchi asosiy institut sifatida globallashtirish bosimlariga qaramasdan o'z ahamiyatini yo'qotmasligi kerakligi ta'kidlangan [5].

Demak, global ta'sirlar sharoitida ham yoshlar ongida oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash mumkin. Buning uchun oila, ta'lim muassasalari, mahalla va davlat siyosati birgalikda harakat qilishi, media tarbiyasi orqali yoshlarning madaniy immuniteti kuchaytirilishi zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, globalizatsiya jarayoni yoshlar ongida oilaviy qadriyatlarni saqlash masalasini murakkablashtirmoqda. Bir tomondan, global axborot maydoni yoshlarga keng imkoniyatlar va bilim olish manbalari taqdim etsa, ikkinchi tomondan milliy va oilaviy an'analariga befarqlik va individualizmni kuchaytirmoqda.

Shu nuqtai nazardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Yoshlar ongida milliy va ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashda ota-onalarning shaxsiy namunasi, tarbiya usuli va oilaviy muhit hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Maktab va oliy ta'lim muassasalarida milliy meros, ma'naviy tarbiya va oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylashga yo'naltirilgan fanlar, maxsus kurslar va targ'ibot ishlarini kuchaytirish zarur.

Yoshlar asosan ijtimoiy tarmoqlar va media mahsulotlar orqali global g'oyalarga moyil bo'lib qolmoqda. Shuning uchun milliy va oilaviy qadriyatlarni targ'ib etuvchi zamonaviy va jozibali media axborot tizimini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mahalla, diniy muassasalar va jamoat tashkilotlari oilaviy qadriyatlarni targ'ib qilishda davlat va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ish olib borishi zarur.

Psixologik va pedagogik profilaktika ishlari orqali yoshlarda global ta'sirlarga nisbatan tanqidiy fikrlash, milliy qadriyatlarni asrab qolish mas'uliyati va ma'naviy barqarorlikni kuchaytirish mumkin.

Yoshlar psixologiyasi va globalizatsiya jarayonining ta'sirini doimiy ravishda o'rganish, statistik ma'lumotlar bazasini kengaytirish hamda xalqaro tajribalarni joriy qilish muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi mulohazalarni inobatga olib oilaviy hamda milliy qadriyatlarni saqlab qolish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Ular quyidagilar:

1. Oilaviy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va ularni maktab hamda oliy ta'lim tizimiga joriy etish.

2. Yoshlar orasida milliy an'ana va qadriyatlarni ommalashtiruvchi madaniy-tarbiyaviy tadbirlarni ko'paytirish.

3. Ijtimoiy tarmoqlarda oilaviy qadriyatlarni targ'ib etuvchi loyihalar va ijtimoiy roliklar tayyorlash.

4. Yoshlar psixologiyasida madaniy immunitetni shakllantirish maqsadida psixologik treninglar va maslahat xizmatlarini kuchaytirish.

5. Davlat siyosati darajasida oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylash va avloddan-avlodga yetkazishga qaratilgan strategiyalarni qabul qilish.

Shu bilan, globalizatsiya ta'sirida shakllanayotgan yangi dunyoqarash sharoitida ham oilaviy qadriyatlarni saqlab qolish va ularni yoshlar ongida mustahkamlash mumkin. Buning uchun barcha ijtimoiy institutlar hamkorlikda harakat qilishi va milliy ma'naviy meros asosida ish olib borishi muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, globalizatsiya jarayonida yoshlar ongida oilaviy qadriyatlarni saqlash muammosi nafaqat milliy, balki umuminsoniy ahamiyatga ega masaladir. Shuning uchun har bir oila, ta'lim muassasasi va ijtimoiy institut bu jarayonda o'z mas'uliyatini anglashi va yosh avlodning ma'naviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan izchil harakat olib borishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Beck, U.. "What Is Globalization?" Cambridge: Polity Press. (2000)

2. Giddens, A.. "Runaway World: How Globalization is Reshaping Our Lives". New York: Routledge. (2002)
3. Robertson, R. "Globalization: Social Theory and Global Culture". London: SAGE. (1992).
4. Inglehart, R., & Welzel, C.. "Modernization, Cultural Change, and Democracy". New York: Cambridge University Press. (2005)
5. UNESCO. "Family, Youth and Cultural Values in a Globalizing World". Paris: UNESCO Publishing. (2018)
6. Huntington, S. P.. "The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order". New York: Simon & Schuster. (1996)
7. Castells, M.. "Communication Power". Oxford: Oxford University Press. (2009)
8. Durkheim, E.. "The Division of Labour in Society". New York: Free Press. (2014)
9. Bauman, Z.. "Community: Seeking Safety in an Insecure World". Cambridge: Polity Press. (2001)
10. Arnett, J. J. "The Psychology of Globalization." *American Psychologist*, 57(10), (2002).774–783.